

O‘ZBEK TILIDA RANG-TUS IFODALOVCHI SO‘ZLARGA NISBATAN RAMZLARNI ANGLATUVCHI ASSOTSATSIYALARNING HOSIL BO‘LISHI

*R. Ubaydullayeva*¹

Annotatsiya:

Maqolada o‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi so‘zlarning ma‘nolari, ularning badiiy adabiyotlarda berilishi misollar asosida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: rang-tus, assotsiatsiya, ramz, simvol, Alisher Navoiy, “Sab’ai sayyor”, baxt, shodlik, poklik, yaxshilik

doi: <https://doi.org/10.2024/19s66520>

Ma’lumki, o‘zbek tilida ayrim rang-tus ifodalovchi so‘zlar ramziy ma’noda qo‘llanadi. Bugungi kunda o‘zbek xalqi uchun oq rangi yorug‘lik, poklik, soflik; qora rangi yovuzlik, o‘lim, mashaqqat; qizil rangi qon, jo‘shqinlik; yashil rangi yoshlik, navqironlik ramzi sifatida talqin etiladi. M.Sodiqovanning ta’kidlashicha, “oq rangi xalqlar e’tiqodida baxt, shodlik, poklik, yaxshilik simvoliga aylanib qolgan. O‘zbek xalqida ham buning elementlarini ko‘rish mumkin. Qizni unashish (unashtirish) marosimida sovchilar oldiga “oq” (oq kiyimlik) qo‘yadilar. Bu – rozilik, yaxshilik belgisi hisoblanadi”².

M.Xrojiddinovaning qayd etishicha, Alisher Navoiy Sab’ai sayyor” asarida yetti xil rang nomini tilga olish bilan kifoyalanib qolmagan, balki har bir rang ramziy xususiyat kasb etib, shoirning niyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan. Masalan, “Navoiy sandal rangi orqali Bahromning sog‘ayganligiga ishora qilgan hamda oq rangga – poklik, soflik, shaffoflik ramzini bergan”³. “Qizil rang timsoli qilib olingan hikoyatlarda qonli kurashlar oldingi rejaga chiqsa, ko‘k (moviy) rang asos bo‘lgan hikoyatda ezgulik xiyla-nayrang-u bosqinchilik ustidan erishilgan g‘alabani tasvirlash barobarida bosh qahramonlar Mehr va Suhaylning otalari Navdar hamda Nu‘monlarning vafotlari tufayli ko‘k (aza) libos kiyganligi tasvirlangan. Sandal rangi orqali shoir doston qahramonlari ruhiy holatidagi noqisliklarni ifodalagan...”⁴

Ammo o‘zbek xalqida ranglarning ramziy ma‘nolari turli davrlarda har xil talqin etilganligi kuzatiladi. Masalan, A.Navoiyning “Qora rang elga toji torakdur, Kim bu rang ichradur – muborakdur”⁵ misrasida qora rang yaxshilik, xursandchilik ramzi sifatida tavsiflangan. Abiyotshunos olim I.Haqqul ham qora rang va qorong‘ulik “Avesto”da oq – yorug‘likning ziddi o‘laroq ta’rif va tavsif etilganligi, oq rang esa, aksincha, ba’zi turkiy

¹ *Ra’noxon Ubaydullayeva, Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani 2-sonli IDUM ona tili va adabiyot o‘qituvchisi*

² Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 84. (– 127 б.)

³ Xrojiddinova M.M. O‘zbek tilida rang-tus bildiruvchi so‘zlar konnotatsiyasi: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 22.

⁴ Xrojiddinova M.M. Ko‘rsatilgan tadqiqot. – B. 21.

⁵ Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 7-жилд. – Тошкент: Ф.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижод уйи, 2011. –Б. 393-428.

qavmlarda oq rang motam, musibat, hatto qurg'ochilik alomati hisoblanganligini bayon qiladi.¹

Anglashiladiki, o'zbek xalqi qadim zamonlardan oq ranglarga ramziy ma'no yuklagan. Ranglarga ramziy ma'no yuklash boshqa xalqlarda ham kuzatiladi. Masalan, G.Klar ayrim xalqlarda qizil rang qon ramzi, sariq rang ayriliq, musibat; qora rangi o'lim, qayg'u ramzi ekanligini ta'kidlaydi².

Ranglarning ramzlarni anglatishi til egalarining assotsiatsiyalarida ham aks etadi. D.Lutfullayevaning qayd etishicha, "Bunday assotsiatsiyalar rang-tus bildiruvchi so'zlar ifodalagan rang-tus ma'nosini yanada aniqroq anglashga, uni "ko'rgazmali" tasavvur qilishga imkon yaratadi"³. U o'zbek tili egalarida *qizil* so'zi ko'pincha *qon*, *sariq* so'zi esa *ayriliq*, *qora* so'zi *o'lim* assosiasiyasini hosil qilishi, rang-tus bildiruvchi ushbu so'zlar ortida yashiringan qon, ayriliq, o'lim ramzlari fikrni ta'sirchan, rang bilan bog'liq voqelikni yanada aniq tasvirlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi⁴.

Har bir xalqning ranglarga ramziy ma'no yuklashida farqli holatlar kuzatiladi. Bu holat rang-tus ifodalovchi so'zlarga nisbatan turli til xalqlarda bir-biridan farqlanuvchi assotsiatsiyalar hosil bo'lishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ayrim ranglarning turli xalqlarda bir xil ramzlarni anglatishi natijasida ularda bu ranglarni bildiruvchi so'zlarga nisbatan umumiy assotsiatsiyalar yuzaga keladi.

O'zbek xalqining ranglarning ramziy ma'nolari bilan bog'liq assotsiatsiyalari tili egalari ustida o'tkazilgan assotsiativ tajribalarda namoyon bo'ldi.⁵ Tajribada til egalari tomonidan *qizil* so'ziga berilgan *jo'shqinlik* assotsiatsiyasi, *oq* so'ziga berilgan *poklik* javob reaksiyasi bu so'zlarning ramziy ma'nolari bilan bog'liq.

Shuningdek, badiiy asarlarda ham adiblarning individual assotsiatsiyalarida ranglarning ramziy ma'nolari ko'zga tashlanadi.

Rang-tus bildiruvchi so'zlarga nisbatan hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar xarakteriga ranglar bilan bog'liq urf-odatlar, an'analar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, *qora* so'zi til egalarida motam rangini, *oq* so'zi esa to'y ko'ylagi rangini yodga tushirishi mumkin.

D.Lutfullayeva qayd etganidek, "*yashil* so'zi o'zbek tili egalari xotirasida ko'pincha *ko'k somsa*, *sumalak*, *Navro'z* so'zlarini yodga tushiradi. Bu holat yurtimizda bahor faslida an'anaviy tarzda o'tkaziladigan Navro'z bayrami bilan bog'liq. Navro'z bayramida bug'doyni ko'kartirish, sumalak, ko'ksomsa, ko'kchuchvara kabi taomlarning pishirilishi *yashil* so'ziga nisbatan qayd etilgan assosiasiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi"⁶.

Demak, rang-tus ifodalovchi so'zlarga nisbatan hosil bo'ladigan assotsiatsiyalar xakteri jamiyatda qabul qilingan urf-odatlar, an'analar bilan ham bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Алишер Навоий. *Тўла асарлар тўплами. 10 жилдлик. 7-жилд.* – Тошкент: F.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижод уйи, 2011. –Б. 393-428.

[2]. Иброҳим Ҳаққул. *Яна қора ранг талқини ҳақида*// <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yana-qora-rang-talqini-haqida.html>

[3]. Клар Г. *Тест Люшера: психологическая характеристика восьми цветов // Магия цвета.* – Харьков, 1996.

¹ Иброҳим Ҳаққул. *Яна қора ранг талқини ҳақида*// <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/ibrohim-haqqul-yana-qora-rang-talqini-haqida.html>

² Клар Г. *Тест Люшера: психологическая характеристика восьми цветов // Магия цвета.* – Харьков, 1996.

³ Lutfullayeva D, Axmedova N., Ahmedova A., Saydalimova M. *Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari.* – Toshkent, 2024.

⁴ Lutfullayeva D., va boshqalar. *Ko'rsatilgan kitob.*

⁵ Assotsiativ tajriba 2023-yilda Qo'qon davlat peadgogika instituti talabalari ustida o'tkazildi.

⁶ Lutfullayeva D., va boshqalar. *Ko'rsatilgan kitob.*

International Conference

ADVANCED METHODS OF ENSURING QUALITY OF EDUCATION: PROBLEMS AND SOLUTIONS

- [4]. *Lutfullayeva D, Axmedova N., Ahmedova A., Saydalimova M. Tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari. – Toshkent, 2024.*
- [5]. *Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1974. – Б. 84. (– 127 б.)*
- [6]. *Xrojiddinova M.M. O'zbek tilida rang-tus bildiruvchi so'zlar konnotatsiyasi: Filol. fan. bo'yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – B. 22.*